

## CHET TILINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING ILMIIY-METODIK ASOSLARI

**Tuxtayeva Ezoza Elmurod Qizi**

*Samarqand Davlat Chet tillar instituti*

**Annotatsiya:** *So'nggi yillarda chet tillarni o'rganishga va o'rgatishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan ingliz tili fanini qiziqarli va zamonaviy metodikalardan foydalanib o'tishni taqozo etmoqda. Maqolada umumiy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qituvchisining darslarga integrativ yondashuvi va undan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *integratsiya, Grammatik, pedagogik, birlik, yondashuv, zamonaviy, xorijiy til, metod.*

Hozirgi kunda mustaqil respublikamiz ta'lim sohasida o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Zamonamizning hayotiy ehtiyojlari maktablarda ta'lim-tarbiya ishlari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishni va chet tillarni puxta o'rgangan, ilmi kelajak avlodni tarbiyalashni talab qiladi. Biz, chet tili pedagoglarining vazifasi o'quvchilarni xorijiy til, ya'ni ingliz tilida aqliy rivojlanishga, mantiqiy tafakkurini o'stirishga va o'z fikrini ingliz tilida bayon etalishiga, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantiriga o'rgatishdan iborat. O'qitish tizimimizda integrativ usuldan foydalansak, albatta asosli bo'ladi va bu yondashuv hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar ta'lim tizimida qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada bu yondashuvning maqsadi, mazmuni yoritilgan.

Pedagogikada integrativ yondashuv-bu o'ziga xos metod bo'lib, fanning turli bo'limlarini aralashtirish, qo'shish va bir-biriga bog'lab o'rganishni anglatadi. "Integratsiya" so'zi ham alohida bo'laklarni birlashtirishni ifodalaydi [1]. Ta'limda integratsion birlashtirish odatda fanlararo qo'llaniladi, lekin bu metodni fanning o'z ichida amalga oshirsak, aynan o'sha fanni o'qitishda ancha ilg'or natijalarga erishiladi. Fan ichida bo'lgan integratsiyaga misol qilib, Grammatik birliklarni frazeologik birliklar bilan bog'lashni yoki, fikrlashni o'stiradigan muammoli vaziyatlar orqali taqdim etiladigan topshiriqlarni lug'at yod olish bilan bog'lash mumkin. Bu haqida pedagogikada Y.A. Kamenskiy shunday degan: "Inson o'rganadigan bilimlar ayri-ayri, bo'laklangan holda emas, balki o'zaro bog'liq va yaxlitlikka qaratilgan bo'lishi kerak", "Integratsiya – faqatgina ta'lim elementlarini bog'lashgina emas, balki bir fan yordamida javobi topilmagan muammolarni boshqa fanlarni mutanosibli yordamida yechim topish ham demakdir" [2]. Mavzulararo integratsiya: bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o'quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo'lgan o'quv materiallari bilan uyg'unlashtiriladi va bu o'quvchiga mavzuni, darslikni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo

integratsiyalashuv esa yangi pedagogik yechimlarni faol izlashga, o'quvchilarga samarali va asosli ta'sir ko'rsatishga, pedagogic xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'nalish beradi. O'quv fanlari va mavzularni integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta'lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo'riqish sarflanishlarining oldi olinadi. Bugundagi ta'limning maqsadi barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan ijodkor shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ana shu maqsadni amalga oshiradigan-tizim ichida o'zgarishlar qilishni taqozo etadigan «innovatsion» tushunchadir.

Integrativ yondashuvli darsda o'quvchi ongida ijodkorlik tamoyiliga, shaxsiy rivojlanishga, mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ko'nikmalarni oshirishga harakat qilinadi. Anglashiladiki, munozara qildirish, fantaziya qilolishga o'rgatish ilgari suriladi. bunday zamonaviy darsdan asosiy maqsad o'quv jarayonida o'quvhilar faoliyatini aktivlashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdir. Integratsiya o'z o'rnida bilimlarning parchalanib ketishini oldini oladi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, ta'limda integratsiyaning ham salbiy tomonlari bor. Yuqorida bu yo'nalishning faqat ijobiy tomonlari yoritildi. Integratsiyaning salbiy tomonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: dars zichligining oshishi, tafsilotlarning kamayishi, darsga tayyorgarlik ko'rishda juda ko'p vaqt sarflash. Demak, integratsion ta'lim berishda pedagogdan yuqori ilim va darslarda universallik talab qilinadi. Xususan, ta'imda integratsiyaning afzalligi tor ma'lumotga ega emas, balki uning maqsadi aktiv mutaxassisni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytish kerakki, integrativ yondashuv yordamida olib boriladigan xorijiy til dasturlari o'rganuvchilarga o'zini anglash va o'zini o'zi rivojlantirish kabi imkoniyatlarni yaratib beradi. Bu yondashuv orqali dunyo su'rati talabalar ongida to'liq shakllanadi, ularning dunyoqarashi va tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi ekstralingvistik bilimlari ham ortib boradi. Albatta, bu kabi imkoniyatlarni yaratib beruvchi yondashuv hozirgi zamon jamiyat talabiga javob berishi shubxasiz.

#### REFERENCES:

1. Зимняя И.А., Земцова Е.В. Интегративный подход к оценке единой социально-профессиональной компетентности выпускников вузов // Высшее образование сегодня. 2008. № 5. С. 14–19.
2. Jalolov. J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent
3. <https://goaravetisyan.ru/uz/integrirovannoe-obuchenie-sushchnost-osnovnye-idei-i-principy-integrativnoi-pedagogiki-vidy-integrac>
4. Izatullayevna. I.I. Xorijiy tillarni o'qitish sohasida zamonaviy yondashuv: tuzilishi, maqsadi va vazifalari. – Toshkent.: 2022.
5. Xurramova. Z.J. Ona tili o'qitishda integrativ yondashuv. – Toshkent.: 2018